

MAQSUD SHAYXZODA SHE'RIYATIDAGI SINONIMLARNING PRAGMATIK**TALQINI**

Maxanova Feruza Mamarajabovna
mustaqil izlanuvchi O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari Maqsud Shaxzoda she'riyatidagi sinonimlarning pragmatik talqin haqida fikr yuritilgan. Hamda shoir Maqsud Shayxzoda she'rlarida uchraydigan sinonimlarning lingvopoetika jihatlari xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar; sinonimlar, lingvopoetik xususiyatlar, polesemantika, leksema, leksek va kontekstual sinonimlar, kontekst.

Jahon tilshunosligida pragmatika va pragmatizm g'oyalari XX asrning 20-30-yillarida boshlandi. Ayniqsa, Amerika tilshunoslik maktabi va Yevropa tilshunosligida targ'ibotning keng yoyilishi Pirs, Karnap, Morris, Vitgenshteynlarning olib brogan tadqiqotlari bilan bog'liq. Xususan, amerikalik olim Pirs tomonidan pragmatika haqidagi muhim va qiziqarli fikrlar tashlangan. Yana bir amerikalik olim Morris ushbu g'oyani o'z tadqiqotlari bilan rivojlantirgan va pragmatika terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. Pragmatik tilshunoslikning rivojlanishi Paul Grice, John Austin, John Searle, H.P. Grice va boshqa olimlarning tadqiqotlari orqali namoyon bo'a boshladi. Ular nutqning funksiyalarini, kontekstning ahamiyatini va tinglovchining rolini ta'kidlash haqida ilmiy qarashlarni oldinga surdilar. Zamonaviy pragmatik tadqiqotlar kognitiv tilshunoslik, korpus tilshunosligi va hisoblash tilshunosligi bilan chambarchas bog'liq. Pragmatik talqinlar an'anaviy tilshunoslik va zamonaviy tilshunoslik bilan ham chambarchas bog'liq holda amalga oshmoqda. Masalan, kompyuter lingvistikasi bilan bog'liq tadqiqotlarning olib borilishi zamon talabi hisoblanadi. Matnni tushunish va generatsiya qilish tizimlarini yaratishda muhim hisoblangan tadqiqotlar bugun zarur. Albatta, ular uchun leksik baza vazifasini yaratish uchun vazifalar bor:

- Madaniy va kontekstual farqlarni hisobga olgan holda aniq tarjima qilish;
- Badiiy asarlarning lingvopoetik tahlili va turli tahlilini o'tkazish;
- Nutqning ijtimoiy kontekstidagi rolini o'rganishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyatini belgilash;

Pragmatik talqin tilshunoslikning muhim jihati bo'lib, u badiiy matn yoki nutqning haqiqiy ma'nosini tushunishga, shuningdek, odamlar o'rtasidagi muloqotning murakkab mexanizmlarini o'rganishga yordam beradi.

Pragmatika bu har bir insonning, ijtimoiy guruhning, umuman, so'zlovchining ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni bo'lib, ma'lum nutqiy aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika bir qarashda anglashiladigan, o'qib tushunishga asoslangan jarayon emas.

Tilshunoslikda pragmatik talqin matnning yoki nutqning ma'nosini faqatgina so'z va birikmalar, leksik ma'nolar asosida emas, balki nutq vaziyati, kontekst, muallifning niyati va tinglovchining bilimlari kabi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilishni anglatadi. Bu, matnning yashirin ma'nolarini, so'zlarning konnotativ ma'nolarini va ularning nutqdagi funksiyasini tushunishga qaratilgan.

Matandan anglashilgan nutq vaziyatiga so'zlovchining aloqa aralashuvidagi o'zaro munosabatlari, aloqa aralashuv vaziyati bilan bog'liq turli masalalari qamrab oladi. Nutq subyekti bilan bo'g'liq holda quyidagi holatlarni qamrab oladi.

1. Biror bir axborot yoki fikrni yetkazish;
2. Diskurs jarayonida so'roq, buyruq, istak, iltimos, maslahat, uzr so'rash, shikoyatni to'g'ridan-to'g'rin emas, bilvosita ifodalash vazifasini bajaradi;
3. Muloqot jarayonida so'zlovchining nutq taktikasi hamda shaxs ma'naviy sifatlarini namoyon etish;
4. Suhbat, so'zlashish qoidalari, so'zlovchining maqsadi, so'zlovchi tomonidan adresatning nutqiy bazasining ko'rinishi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa hislatlariga baho berilish"tashxis" qo'ya olish;
5. So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar ham aks etadi.

Yuqoridagi talablar asosida shuni aytish mumkinki, pragmatik talqin badiiy asar tilining eng muhim jihatlarini qamrab oladi va uni namoyon etishda leksik sath asosiy vazifa bajaradi. Tabiiyki, leksik sathning badiiy pafosini yuzaga keltirishda sinonimlar muhim ahamiyat kasb etadi, quyida sinonimlarning pragmatik talqiniga oid asosiy tamoyillarga to'xtalib o'tamiz.

Nutqiy faollik matn yoki nutqni faqat ma'lumot uzatish vositasi emas, balki ma'lum bir harakatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, Maqsud Shayxzodaning she'rlarida "nega" so'zi uchrasa, uning nutqda, kontekstagi talqini turli shaklda uchraydi. Xususan, *tinglovchiga so'roq, xayrat, norozilik, ishonmaslik, achinish, iymonish, tejamkorlik* ma'nolarini anglatishi mumkin. Pragmatik talqinda ushbu harakatning turi va maqsadi badiiy matnga asoslanib tahlil qilinadi. Pragmatik talqinda matn konteksti, ya'ni nutq vaziyati, tinglovchilarning bilimlari va ma'naviy, madaniy qadriyatlar ham hisobga olinadi. Bir xil so'z va iboraning turli kontekstlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Pragmatik talqinda

matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan, lekin tinglovchi tomonidan kontekst asosida tushunilgan ma‘nolar (implikatsiya) muhim rol o‘ynaydi. Tinglovchi matndan olingan ma‘lumotlarni o‘z bilimlari bilan bog‘lab, qo‘shimcha ma‘nolarni chiqaradi (inferensiya). Shoirning “Ko‘ryapman har damda uni..” she‘rida shunday manzaraga guvoh bo‘lamiz.

Eshitmadim uning sasini,
Na Qo‘qonning darsxonasida
Na o‘zining taronasida,
Na o‘qirgan manzumasini.

Mazkur baytda kitobxon uchun mavhum va aniq pragmatik talqinlar mavjud. Masalan, mazkur baytda kim haqida gap ketayotganligi noma‘lum, biroq matnda shoir so‘zi mavjud bo‘lmasada, “manzuma”, “tarona” kontekstual sinonimlari orqali ijodkor va shoir haqida gap borayotganligini konteks orqali anglash mumkin va bu implikatsiya hisoblanadi. Bundan tashqari ijodkorning asarlari chop etilmayotganligi, ijod qilmayotganligi yoki asarlariga ta‘qiq qo‘yilganligini o‘ylashi mumkin.

Keyingi baytda esa kitobxon yangi sinonimlarni qo‘llanganligi evaziga o‘zi uchun yangi ma‘nolarni oladi hamda mustaqil fikr yuritishi natijasida xulosalar chiqaradi.

Bir asrda yashadik esa,
Men shoirni ko‘ra olmadim.
Bosilgan yil birinchi baytim,
Mangu yumdi ko‘zlarin Hamza.

Biz mazkur baytda “shoir” leksemasi orqali yangi ma‘nolarni aks ettirishimiz mumkin.

- har ikkala ijodkor bir davrda ijod qilgan;
- ular turli hududlarda yashagan;
- ular hamsuhbat bo‘lmagan;
- Hamzaning Qo‘qonda ijod etganligini anglash mumkin;
- Maqsud Shayxzoda Hamzadan kichik bo‘lgan;
- Maqsud Shayxzoda ijodini boshlagan yili Hamza dunyodan ko‘z yumgan;
- Hamza bilan uchrashish orzusi bor bo‘lgan kabi pragmatik talqinlar yuzaga keladi.

Pragmatik talqinlar faqat ma‘lumotlar olish va berishgagina emas, qolaversa, muallifning niyatini ham aks ettirishga, muallifning nutq orqali nimaga erishishni maqsad qilgani tahlil qilinadi. Bu, muallifning kontekstiga va maqsadlariga qarab matnning ma‘nosini to‘liq tushunishga yordam beradi.

“Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Pragmatikning predmetini aniqlashga harakat qilganlardan yana bir tilshunos G. Klaus bo‘lib, u pragmatikani “belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar

o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida ta'riflaydi"¹. Bu belgilar, tabiiyki, leksik birliklarda o'z aksini topadi.

Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi sinonimlarning o'z o'rnini, vazifasi, badiiy maqsadi, qolaversa, so'zlarning sinonimik munosabatlarini nafaqat ularning leksik-semantik ma'nolarini, balki ularning nutqdagi qo'llanilish konteksti, muallifning maqsadi, niyati va kitobxon bilan bo'lgan munosabati, ya'ni pragmatik omillari nuqtai nazaridan tahlil qilish lingvopoetik xususiyatlarini yanada boyitadi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, shoir tomonidan tanlangan sinonimlar tasodifiy emas, balki ma'lum bir maqsadga, ya'ni muloqotning (shoir va kitobxon) muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qilishini nazarda tutadi. Sinonimlarning pragmatik talqinda turli jarayonlar va nutqiy xosliklar yuzaga keladi. Adib she'rlarida joy, vaqt, mafkura, ijtimoiy muhit, ruhiy holat va tabiat tasvirlari pragmatik talqin asosida gavdalanadi. Ijodkorning "Kapitan Gastello" she'ridagi

Umrlar bo'ladiki,
Tirigida o'likdir,
O'limlar bo'ladiki,
O'lgan odam tirikdir...

Men yashamoq istayman,
Bir asrcha muttasil,
Ammo o'lsam roziman,
Gastelloday mard, asil.

Bu nutq vaziyati vaqt, joy, ishtirokchilar, hayotiy voqealar va boshqa omillar bilan bog'liq vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur she'r ham turli kontekstlarda bir-birini to'ldiradigan pragmatik funksiyani bajaradi. Birinchi galda muallifning niyatini aks ettirishga xizmat qilgan. Masalan, "Umrlar bo'ladiki, Tirigida o'likdir" misrasi chuqur ma'noni anglatadi. Inson uzoq shashasi mumkin, biroq hayotda hech bir foydali iz qoldirmasligi mumkin. Afsuski, bunday hayotiy voqealar kam bo'lsa-da, kuzatiladi, demoqchi shoir. Muallif ma'lum bir ma'no ifodalash, emotsional ta'sirni kuchaytirish, stilistik ta'sir yaratish, ma'lumotni ta'kidlash va o'quvchiga Gastellodek vatanparvar, mard, kasbiga sadoqat, yigitlik burchini anglaydigan va ado etadiga inson sifatida aks ettirishni maqsad qilgan. Qaysi kasb egasi bo'lmasin, fidoiy va samimiy inson sifatida gavdalaniradi. Insonning qancha yashaganligi emas, qanday yashaganligi muhim degan pragmatik ma'no aks etadi.

¹ T.Asadov. Matn tilshunosligi. Buxora, 2023-yil. – B. 124

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем // Теория метафоры. – М., 1990
2. Dildor Shodmonova. Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari. (metaforik hodisalar misolida). Fil.fan fal doktrori.... Toshkent, 2022. – B.22
3. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М., 1990. – С. 5 – 51
4. Т. Asadov. Matn tilshunosligi. Buxora, 2023-yil. – B. 124